



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil
yanvar-sentabr*




SIRDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI*2022-yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Sirdaryo viloyatida 2022 yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni **892,2** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 13,6 ming kishiga yoki **1,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **383,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,0 %**), qishloq aholisi soni **508,9** ming kishi (**57,0 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni**892,2** *ming kishi***Tabiiy o'sish****+14,2** *ming kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar****43,0%****Qishloq****57,0%**


Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-sentabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2022- yil 1 oktabr holatiga % da



2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **31,7 %** mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,7 %** mehnatga layoqatli yoshdagilar va **9,6 %** mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga



69,6 yosh



74,4 yosh


2022-yilning 1-yanvar holatiga Sirdaryo viloyati aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **72,0** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **69,6** yoshga, ayollar uchun esa **74,4** yoshga teng. Shahar joylarda 70,1 yoshni tashkil etgan. Qishloq joylarda 73,6 yoshni tashkil etadi.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022- yil 1- oktabr holatiga

Erkaklar

Ayollar





50,2%

49,8%

448,1 *ming kishi*


444,1 *ming kishi*

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	873,8	892,2	102,1
<i>shahar:</i>			
Guliston sh	92,9	98,3	105,8
Shirin sh	19,0	19,2	101,1
Yangiyer sh	44,9	46,4	103,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin t	53,7	54,5	101,5
Boyovut t	133,4	135,0	101,2
Sayxunobod t	79,6	81,0	101,8
Guliston t	75,6	76,8	101,6
Sardoba t	67,9	68,9	101,5
Mirzaobod t	76,6	77,9	101,7
Sirdaryo t	131,7	134,2	101,9
Xovos t	98,5	100,0	101,5


Sirdaryo viloyati bo‘yicha aholi zichligi dinamikasi
1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



Sirdaryo viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometr ga o‘rtacha **208,5** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **4,5** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **204** kishi).


Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Guliston shahrida **2715,9** kishi, Yangiyer shahrida **1546,8 kishi**, Shirin shahrida **1432,8** kishi, Boyovut tumanida **258,3** kishi, Sirdaryo tumanida **241,9** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Oqoltin tumanida **99** kishi, Guliston tumanida **119,7** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti


2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida 17,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 26,2 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan -0,4 promillega pasayganligi kuzatildi (2021- yilda 26,6 promilleni tashkil etgan).

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-sentabr



2022- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – 97,8%
- 2 nafar – 2,1%
- 3 nafar va undan ortiq – 0,1%


VAFOT ETGANLAR



M

Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **3,2** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan ko‘rsatkich 0,1 promillega ko‘paygan (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,7** promille bo‘lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr, % da




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **67,6 %** – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **3,0 %** neoplazmalar i – , **2,7 %** – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **11,4%** – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,8 %** – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **11,3 %** boshqa kasalliklardan vafot etganlar va **1,2 %** -yuqumli va parazitlar kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, birlik



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 5,2 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan -0,8 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 8,6 promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi






2022- yil yanvar-sentabr oylarida **1,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **2,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,4** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida **1,6** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr






26,6%

2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan

2022- yil yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **31,0%** farzandsiz, **42,4%** bitta farzand bilan **26,6%** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

JAMI KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,3** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **8,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **10,1** promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,9** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **9,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **3,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **12,1** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 71 2368632